

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-may oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 12 984,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 455,4 mln. AQSh dollariga yoki 15,9 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	O`tgan yilga nisbatan, % da
TSA	12 740,8	15 440,2	12 984,7	84,1%
Eksport	5 625,9	6 096,7	5 143,4	84,4%
Import	7 114,9	9 343,5	7 841,3	83,9%
Saldo	-1 489,0	-3 246,7	-2 697,9	

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 5 143,4 mln. AQSh dollariga (15,6 % ga kamaydi) va import hajmi 7 841,3 mln. AQSh dollariga (16,1 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - 2 697,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR
(2020- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)**



O`zbekiston, jahonning 150 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (17,9 %), Rossiya Federatsiyasida (16,9 %), Qozog`istonda (8,4 %), Koreya Respublikasida (7,3 %), Turkiyada (5,5 %), Qirg`iz Respublikasida (2,3 %) va Afg`onistonda (2,0 %) qayd etilgan.

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston Tojikiston va Afg`oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg`oniston (263,2 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (211,2 mln. AQSh dollari), Tojikiston (117,8 mln. AQSh dollari), Fransiya (27,1 mln. AQSh dollari) va Eron (7,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	2 205,3	2 975,6	2 325,1
Eksport	977,0	1 125,2	668,7
Import	1 228,3	1 850,4	1 656,5
Saldo	-251,4	-725,2	-987,8
Rossiya Federatsiyasi	2 292,0	2 451,9	2 199,6
Eksport	754,8	894,0	636,5
Import	1 537,3	1 557,9	1 563,1
Saldo	-782,5	-664,0	-926,6
Qozog`iston	1 129,0	1 360,8	1 091,1
Eksport	514,1	518,8	317,4
Import	615,0	841,9	773,8
Saldo	-100,9	-323,1	-456,4
Koreya Respublikasi	671,0	1 157,5	943,5
Eksport	40,2	37,1	17,8
Import	630,8	1 120,4	925,7
Saldo	-590,6	-1 083,3	-907,9
Turkiya	810,7	951,8	709,0
Eksport	379,4	457,8	352,9
Import	431,3	494,0	356,0
Saldo	-51,9	-36,2	-3,1
Qirg`iz Respublikasi	137,1	341,3	302,8
Eksport	87,2	288,5	257,0
Import	49,9	52,8	45,8
Saldo	37,3	235,7	211,2

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Afg`oniston	287,1	215,9	264,8
Eksport	286,1	215,0	264,0
Import	0,9	1,0	0,8
Saldo	285,2	214,0	263,2
Germaniya	267,9	356,6	256,9
Eksport	17,1	19,8	26,0
Import	250,8	336,8	230,9
Saldo	-233,7	-316,9	-204,9
Turkmaniston	74,2	208,7	194,5
Eksport	16,9	44,6	47,8
Import	57,3	164,2	146,8
Saldo	-40,4	-119,6	-99,0
Tojikiston	129,9	153,8	188,3
Eksport	79,0	106,5	153,1
Import	50,9	47,3	35,2
Saldo	28,2	59,1	117,8
Litva	111,8	167,5	178,7
Eksport	3,8	10,0	10,1
Import	108,0	157,5	168,6
Saldo	-104,3	-147,4	-158,5
Ukraina	159,2	170,2	145,5
Eksport	43,1	57,5	38,4
Import	116,1	112,7	107,1
Saldo	-73,0	-55,2	-68,7
Italiya	100,3	119,7	142,9
Eksport	8,3	10,7	6,2
Import	92,0	109,0	136,7
Saldo	-83,7	-98,2	-130,5

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Latviya	155,3	197,2	135,5
Eksport	18,8	21,6	14,1
Import	136,6	175,6	121,5
Saldo	-117,8	-154,0	-107,4
Fransiya	119,3	131,4	126,8
Eksport	75,4	83,5	76,9
Import	43,9	47,9	49,9
Saldo	31,5	35,6	27,1
Hindiston	118,3	135,9	108,0
Eksport	10,6	7,1	6,1
Import	107,7	128,8	101,8
Saldo	-97,0	-121,8	-95,7
AQSh	250,0	295,1	106,0
Eksport	12,6	11,1	7,9
Import	237,4	284,0	98,1
Saldo	-224,8	-273,0	-90,2
Chexiya Respublikasi	22,9	34,6	104,9
Eksport	2,0	2,7	13,4
Import	20,9	31,8	91,5
Saldo	-18,9	-29,1	-78,1
Belarus	190,0	162,5	93,0
Eksport	16,8	19,8	17,1
Import	173,2	142,7	75,9
Saldo	-156,4	-122,9	-58,8
Eron	135,8	177,0	89,2
Eksport	102,7	100,7	48,5
Import	33,1	76,3	40,6
Saldo	69,7	24,4	7,9

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Respublikamizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 2,9 % ga oshgan.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-may oylarida 2018- yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi 64,6 % ni tashkil etdi.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 4 131 tani tashkil etib, ular tomonidan 3 501,6 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 82,9 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (18,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 %), mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (7,5 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

XSST BO`YICHA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-may, ulushi, % da)



	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 8,2 %		Ichimliklar va tamaki - 0,3 %
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari - 4,1 %		Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar - 7,5 %
	Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar - 0,2 %		Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar - 6,2 %
	Sanoat tovarlari - 18,0 %		Mashinalar va transport asbob-uskunalar - 2,4 %
	Turli xil tayyor buyumlar - 4,1 %		Boshqa tovarlar - 0,2 %
	Oltin - 31,9 %		Xizmatlar - 17,1 %

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2020- yil yanvar-may)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o`ngan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o`ngan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o`ngan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	5 143,4	84,4	100,0	1 662,9	72,2	100,0	3 480,5	91,7	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	421,2	73,6	8,2	262,9	68,0	15,8	158,3	85,3	4,5
Ichimliklar va tamaki	12,9	149,8	0,3	12,1	146,4	0,7	0,8	2,2 b.	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	208,5	62,6	4,1	99,6	112,6	6,0	108,9	44,5	3,1
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	384,3	43,6	7,5	136,1	30,5	8,2	248,3	57,0	7,1
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	10,0	187,6	0,2	5,6	106,9	0,3	4,4	67,1 b.	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	317,3	88,8	6,2	123,1	77,5	7,4	194,2	97,9	5,6
Sanoat tovarlari	924,9	81,7	18,0	299,4	94,4	18,0	625,5	76,7	18,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	124,2	95,4	2,4	103,9	127,1	6,2	20,3	41,9	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	210,4	125,4	4,1	198,4	128,9	11,9	11,9	86,0	0,3
Boshqa tovarlar	1 650,2	131,3	32,1	8,3	33,1	0,5	1 641,9	133,3	47,2
shu jumladan: oltin	1641,7	133,3	31,9	-	-	-	1641,7	133,3	47,2
Xizmatlar	879,5	70,2	17,1	413,6	65,5	24,9	465,8	75,0	13,4

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda turli xil tayyor buyumlarga to`g`ri kelmoqda.

2020- yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2018-yilning yanvar-mayiga nisbatan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o`sish kuzatildi.

EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-may, % da)

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,0	9,4	8,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	3,9	5,5	4,1
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	15,5	14,5	7,5
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,0004	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	6,7	5,9	6,2
Sanoat tovarlari	14,7	18,6	18,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,6	2,1	2,4
Turli xil tayyor buyumlar	2,4	2,8	4,1
Boshqa tovarlar	27,7	20,6	32,1
shu jumladan oltin	27,7	20,2	31,9
Xizmatlar	20,4	20,5	17,1

**XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
(2020- yil yanvar-may)**


XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	313,3	65,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	83,3	3,7 b.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	8,5	2,1 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,5	10,2
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,6	75,4
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	10,7	2,2 b.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,3	59,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	92,1	40,5
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	76,2	193,7
Metall rudalari va metall parchalari	18,4	48,9
Qog`oz massasi va makulatura	11,8	107,4
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	3,6	40,5
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun`iy gaz	311,8	39,7
Elektr toki	52,2	110,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	20,3	42,2
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	9,9	186,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	113,3	69,6
Noorganik kimyo moddalari	118,7	99,1
O`g`itlar	58,3	101,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	8,7	2,4 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6,4	180,9

Sanoat tovarlari		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	473,0	95,6
Rangli metallar	314,7	69,1
Cho`yan va po`lat	63,6	53,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	27,3	2,6 b.
Ruda bo`limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	29,4	171,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	67,5	2,3 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	40,5	77,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	4,7	155,2
Sanoat uchun maxsus bo`limgan mashinalar va ularning detallari	6,6	80,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	1,8	11,9
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	176,2	119,2
Poyabzal	13,8	2,2 b.
Har xil tayyor buyumlar	11,4	103,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4,4	4,6 b.
Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xshash buyumlar	1,0	102,0
Boshqa tovarlar		
Oltin	1 641,7	133,3
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko`ra tasniflanmagan tovarlar	8,4	33,8

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yil yanvar-maydagi 27,3 % dan 2020- yil yanvar-mayda 32,3 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 67,7 % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (13,0 %), Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 12,4 % i), Turkiya (6,9 %), Qozog`iston (6,2 %), Afg`oniston (5,1 %), Qirg`iz Respublikasi (5,0 %) va Tojikiston (3,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 51,5 foizni tashkil etmoqda.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2020- yil yanvar-may, % da)



Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo`lgan Rossiya Federatsiyasining joriy yilning yanvar-apreliga nisbatan bir pog`onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo`yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019- yining mos davriga nisbatan 141 davlatdan 140 davlatga kamaydi.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI
(yanvar-may)**


Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O`sinh sur`ati, % da		O`rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	1 125,2	668,7	115,2	59,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	894,0	636,5	118,4	71,2	2	2
Turkiya	457,8	352,9	120,7	77,1	4	3
Qozog`iston	518,8	317,4	100,9	61,2	3	4
Afg`oniston	215,0	264,0	75,1	122,8	6	5
Qirg`iz Respublikasi	288,5	257,0	3,3 b.	89,1	5	6
Tojikiston	106,5	153,1	134,7	143,8	7	7
Fransiya	83,5	76,9	110,7	92,2	9	8
Eron	100,7	48,5	98,0	48,2	8	9
Turkmaniston	44,6	47,8	2,6 b.	107,2	12	10
Birlashgan Arab Amirliklari	49,9	44,1	2,8 b.	88,5	11	11
Ukraina	57,5	38,4	133,5	66,8	10	12
Germaniya	19,8	26,0	116,2	130,9	17	13
Ozarbayjon	14,5	25,2	140,2	173,6	21	14
Kanada	0,3	23,7	90,1	70,4 b.	56	15
Polsha	18,5	21,8	111,8	117,9	19	16
Singapur	16,7	21,0	85,4	125,6	20	17
Pokiston	24,9	18,4	2,5 b.	73,9	15	18
Koreya Respublikasi	37,1	17,8	92,4	48,0	14	19
Belarus	19,8	17,1	117,9	86,3	18	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2020- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)

XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog`iston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Jami eksport	1125,2	668,7	894,0	636,5	457,8	352,9	518,8	317,4
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,5	12,5	63,3	72,7	62,2	6,7	115,6	96,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	4,4	3,0	-	-	1,8	7,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	145,2	32,9	18,1	16,6	5,9	8,3	31,8	15,0
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	348,6	172,6	263,8	111,0	5,5	2,6	164,4	0,1
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	-	-	0,01	-	-	-	0,003	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	64,1	39,0	68,9	37,8	24,9	26,1	46,8	32,8
Sanoat tovarlari	259,1	170,8	200,6	166,2	315,8	283,4	51,3	32,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1,6	2,5	29,9	15,9	24,0	12,6	25,7	58,2
Turli xil tayyor buyumlar	-	1,8	100,5	103,8	0,6	1,3	12,5	12,8
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-	18,8	2,1
Xizmatlar	288,0	236,4	144,4	109,5	18,8	12,0	50,1	60,4

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(yanvar-may, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi 879,5 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 17,1 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 29,8 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (63,8 %) va safarlar (turizm) (23,1 %) hamda telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (7,0 %) hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (6,1 %) ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar boshqa tadbirkorlik bilan bog`liq xizmatlar (2,3 %), qurilish xizmatlari (2,0 %) hamda moliyaviy xizmatlar (0,7) hissasiga to`g`ri keladi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 305,1 mln. dollar qiymatli 542,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 211,2 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 40,9 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 170,6 mln. AQSh dollariga teng 443,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 98,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 67,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2020- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (30,0 %), Rossiya Federatsiyasi (22,4 %), Qirg`iz Respublikasi (17,1 %), Afg`oniston (6,6 %), Pokiston (3,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (3,7 %) va Tojikiston (2,4 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-may)**

Davlat nomi	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog`iston	226,3	110,9	21,5	239,5	91,6	30,0
Rossiya Federatsiyasi	92,4	49,7	9,6	112,2	68,2	22,4
Qirg`iz Respublikasi	35,0	160,0	31,0	47,3	52,0	17,1
Afg`oniston	19,9	20,4	4,0	37,9	20,2	6,6
Pokiston	16,7	19,0	3,7	10,4	11,8	3,9
Xitoy Xalq Respublikasi	22,9	17,4	3,4	13,6	11,2	3,7
Tojikiston	2,7	3,7	0,7	10,2	7,3	2,4
Ukraina	43,3	26,1	5,0	12,5	6,3	2,1
Turkiya	47,0	61,4	11,9	4,9	5,7	1,9
Iroq	13,1	5,4	1,0	19,6	5,1	1,7
Belarus	8,0	4,5	0,9	6,8	4,7	1,5
Turkmaniston	12,6	2,9	0,6	12,5	3,1	1,0
Germaniya	1,2	3,1	0,6	0,8	2,5	0,8
Ozarbayjon	3,4	2,7	0,5	2,2	2,4	0,8
Gruziya	6,9	2,2	0,4	3,3	2,4	0,8
AQSh	0,6	1,4	0,3	0,7	1,8	0,6
Boshqa mamlakatlar	50,3	25,5	4,9	8,0	8,9	2,9

*- qiymat ifodasida

TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 655,5 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 12,7 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 0,3 % ga o`sdi.

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (50,2 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (26,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 348 turdagi to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 55 ta davlatiga eksport qilindi.

TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)

Tovar nomi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Paxtadan yigirilgan ip	314,2	383,2	329,2
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	116,6	146,1	173,3
Gilamlar	11,7	11,6	8,0
Naqshli mato	27,4	35,0	42,9
Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	15,5	18,9	34,7
Paxtadan gazlamalar	24,7	28,8	37,9
Ipak va ipak mahsulotlari	14,0	15,2	13,8
Paxta mahsulotlari	8,9	11,1	12,6

Respublikaning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (254,2 mln. AQSh dollari – 38,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (129,7 mln. AQSh dollari – 19,8 %) va Turkiya (77,1 mln. AQSh dollari – 11,8 %) davlatlari hissasiga to`g`ri keldi.

DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHILIK MAHSULOT-LARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)


Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Rossiya Federatsiyasi	231,1	250,1	254,2
Xitoy Xalq Respublikasi	121,9	190,1	129,7
Turkiya	64,7	63,6	77,1
Qirg`iziston	25,7	34,9	74,3
Polsha	9,7	10,7	15,7
Qozog`iston	18,4	16,6	15,4
Ukraina	6,9	9,4	14,0
Eron	4,4	19,7	11,5
Tojikiston	1,0	4,0	7,9
Belarus	9,5	10,3	7,7
Misr	0,4	4,1	6,3
Singapur	0,2	-	5,6
Pokiston	1,7	3,4	5,0
Ozarbayjon	1,9	3,7	4,3
Italiya	2,8	5,8	3,2
Koreya Respublikasi	5,1	3,1	3,0
Germaniya	1,4	3,1	2,7
Hindiston	0,7	0,2	2,7
Moldova Respublikasi	1,4	2,2	2,6


O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2020- yil yanvar-may)

2020- yil yanvar-may oylarida import hajmi 7 841,3 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 83,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,1 %), sanoat tovarlari (16,5 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (13,3 %) hisobiga to`g`ri keldi.

XSST BO`LIMI BO`YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-may, ulushi, % da)



	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 7,5 %		Ichimliklar va tamaki - 0,2 %
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari - 4,8 %		Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar - 5,6 %
	Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar - 1,3 %		Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar - 13,3 %
	Sanoat tovarlari - 16,5 %		Mashinalar va transport asbob-uskunalari - 37,1 %
	Turli xil tayyor buyumlar - 5,8 %		Boshqa tovarlar - 0,2 %
	Xizmatlar - 7,5 %		

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020- yilning yanvar-mayida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1 208,6 mln. AQSh dollariga kamaydi va 7 250,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 590,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2020- yil yanvar-may)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	7 841,3	83,9	100,0	2 928,4	90,6	100,0	4 912,9	80,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	591,4	90,4	7,5	463,4	109,6	15,8	128,0	55,3	2,6
Ichimliklar va tamaki	14,2	74,2	0,2	6,0	138,8	0,2	8,2	55,4	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	378,9	89,1	4,8	304,8	81,6	10,4	74,1	143,5	1,5
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	442,1	123,6	5,6	424,4	123,8	14,5	17,7	118,3	0,4
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	103,6	84,2	1,3	87,3	88,9	3,0	16,2	65,6	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	1 040,3	96,4	13,3	257,8	104,5	8,8	782,5	94,0	15,9
Sanoat tovarlari	1 294,9	81,6	16,5	722,7	82,7	24,7	572,3	80,3	11,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2 908,9	79,6	37,1	373,7	89,2	12,8	2 535,2	78,3	51,6
Turli xil tayyor buyumlar	458,4	85,0	5,8	57,6	109,8	2,0	400,8	82,4	8,2
Boshqa tovarlar	18,3	94,1	0,2	13,8	90,9	0,5	4,5	105,4	0,1
Xizmatlar	590,4	66,8	7,5	216,9	56,7	7,4	373,5	74,5	7,6

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (96,0 %), hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar (84,3 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, (yoqilg'idan tashqari) (80,4 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush turli xil tayyor buyumlar (87,4 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (87,2 %), hissasiga to`g`ri keladi.

IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2020- yil yanvar-may, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,1	7,0	7,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	4,9	4,6	4,8
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	5,8	3,8	5,6
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	1,2	1,3	1,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	11,3	11,5	13,3
Sanoat tovarlari	17,6	17,0	16,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	35,6	39,1	37,1
Turli xil tayyor buyumlar	2,9	5,8	5,8
Boshqa tovarlar	-	0,2	0,2
Xizmatlar	12,5	9,5	7,5

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalarini importining ulushi 35,6 % dan 37,1 % gacha o`tdi, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar 11,3 % dan 13,3 % ga, sanoat tovarlari importining ulushi esa 17,6 % dan 16,5 % ga kamaydi.

**XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2020- yil yanvar-may)**


Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o`zgarish sura`tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	234,3	97,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	83,3	75,5
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	56,0	92,2
Sabzavotlar va mevalar	48,2	98,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	56,8	98,0
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	8,9	65,4
Ichimliklar	5,3	96,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
Metall rudalari va metall parchalari To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	171,0	102,6
Probka va yog`och-taxtalar	112,9	83,2
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	21,1	49,4
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	19,3	76,1
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	29,7	90,9
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	342,0	108,2
Ko`mir, koks va briketlar	47,3	2,2 b.
Elektr toki	52,7	2,7 b.
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moylari va yog`lari	89,6	91,7
Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari	13,3	53,5
Hayvonlar moylari va yog`lari	0,7	121,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	375,9	87,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	180,0	84,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	173,4	136,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	85,0	121,8
Organik kimyo moddalari	57,1	92,6

Sanoat tovarlari		
Cho`yan va po`lat	550,9	82,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar	177,3	77,3
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	100,1	98,5
Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar	76,9	71,3
Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	105,8	65,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	755,4	75,0
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	411,4	110,6
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	205,9	133,3
Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari	578,8	79,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	253,3	191,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	249,5	76,9
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	168,2	94,0
Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	112,1	59,9
Har xil tayyor buyumlar	118,7	101,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar	36,8	147,3
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	11,6	79,5
Boshqalar		
Maxsus operatsiyalar va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	12,4	87,3
Oltin	5,9	112,5

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga shakar va shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal (24,5 % ga pasaygan), hayvonlar uchun ozuqalar (7,8 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (2,2 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining kamayganligi (25,8 %) hamda tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (12,5 %) bevosita ta`sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLAT-LARDAN TOVAR VA XIZMATLAR
IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2019- yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-may oylari yakuni bo`yicha O`zbekiston Respublikasi tomonidan 131 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-may)


Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o`sinh sur`ati, % da		o`rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	1 850,4	1 656,5	150,6	89,5	1	1
Rossiya Federatsiyasi	1 557,9	1 563,1	101,3	100,3	2	2
Koreya Respublikasi	1 120,4	925,7	177,6	82,6	3	3
Qozog`iston	841,9	773,8	136,9	91,9	4	4

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o`shish sur`ati, % da		o`rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Turkiya	494,0	356,0	114,5	72,1	5	5
Germaniya	336,8	230,9	134,3	68,6	6	6
Litva	157,5	168,6	145,8	107,1	10	7
Turkmaniston	164,2	146,8	2,9 b.	89,4	9	8
Italiya	109,0	136,7	118,5	125,4	15	9
Latviya	175,6	121,5	128,6	69,2	8	10
Ukraina	112,7	107,1	97,1	95,0	14	11
Hindiston	128,8	101,8	119,7	79,0	13	12
AQSh	284,0	98,1	119,6	34,5	7	13
Chexiya Respublikasi	31,8	91,5	152,4	2,9 b.	30	14
Yaponiya	129,9	82,5	190,3	63,5	12	15
Belarus Eron	142,7	75,9	82,4	53,2	11	16
Niderlandiya	51,4	53,4	108,9	103,9	21	17
Fransiya	47,9	49,9	109,1	104,2	22	18
Qirg`iz Respublikasi	52,8	45,8	105,9	86,7	20	19
Braziliya	70,3	42,7	12,3 b.	60,8	18	20

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 21,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (19,9 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.


Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Litva) jami importning 72,4 % ini tashkil qiladi, bu 5 674,6 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2020- yil yanvar-may)**



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2020-yanvar-may, ulushi, % da)**



2020- yil yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 590,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 7,5 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 33,2 % ga tushgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm xizmatlari), transport xizmatlaridan iborat bo`ldi. Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 21,6 % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (7,6 %), intellektual mulkdan foydalanganlik uchun yig`imlar (6,3 %), qurilish xizmatlari (3,6 %) va boshqalar tashkil etdi.


QURILISH MATERIALLARI IMPORTI

2020- yil yanvar-may oylari yakuni bilan 394,0 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo`lib, umumiy import hajmining 5,0 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (47,8 %), shisha va shisha buyumlar (5,6 %), sement (7,6 %), hamda asbest (2,3 %) asosiy ulushni egallagan.

2020- yil yanvar-may yakunlariga ko`ra, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan pasayish (23,8 %) qayd etildi.

QURILISH MATERIALLARI IMPORTI (yanvar-may 2020- y.)



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Sement	48,0	71,7	29,9
Yog`och va yog`och mahsulotlari	250,7	241,2	188,4
Asbest	21,8	12,6	9,0
Shisha va shisha buyumlar	23,0	23,7	21,9

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi boshqarmasi**
Tel.:71-230-80-42(3)